



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

ADABIY AN'ANALAR VA MUQIMIY IJODIYOTINING TAKOMILI

Tursunova Namunaxon Xaydarali qizi
Qo'qon universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Muhammad Aminxo'ja Muqimiy ijodining shakllanishi va takomilida adabiy an'analarning, ayniqsa xalq og'zaki ijodining ta'siri tahlil qilinadi. Qo'qon adabiy muhitining yirik vakili bo'lgan shoirning g'azallarida xalqona ruh, milliy tasvir vositalari, ommabop tashbeh va iboralarning qo'llanishi misollar asosida yoritiladi. Tadqiqotda Muqimiy she'riyatidagi folklor unsurlarining badiiy-estetik vazifasi, xalqona ifoda va obrazlarning shoir uslubidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, shoirning xalq tiliga yaqin uslubi uning g'azallarini xalq orasida ommalashishiga xizmat qilgani ko'rsatib o'tiladi. Maqolada adabiy an'ana va individual badiiy mahorat uyg'unligi Muhammad Aminxo'ja Muqimiy ijodining muhim xususiyatlaridan biri sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Muhammad Aminxo'ja Muqimiy, Qo'qon adabiy muhiti, xalq og'zaki ijodi, folklor an'analari, g'azal, xalqona uslub, badiiy tasvir vositalari, tashbeh, poetik mahorat, adabiy an'ana, milliy ruh, obrazlilik, o'zbek mumtoz adabiyoti, folklorizm, poetik til.

ЛИТЕРАТУРНЫЕ ТРАДИЦИИ И РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА МУКИМИ

Турсунова Намунахон Хайдарали кизи
Кокандский университет, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируется влияние литературных традиций, особенно устного народного творчества, на формирование и развитие творчества Мухаммада Аминходжи Мукими. На примерах из газелей поэта, являющегося одним из крупнейших представителей кокандской литературной среды, раскрываются народный дух, национальные художественные средства, распространённые сравнения и устойчивые выражения. Исследование обосновывает художественно-эстетическую функцию фольклорных элементов в поэзии Мукими, а также роль народных образов и выражений в формировании его индивидуального стиля. Подчёркивается, что близость языка поэта к народной речи способствовала широкой популярности его произведений среди читателей. Единство литературной традиции и индивидуального художественного мастерства рассматривается как одна из важнейших особенностей творческого наследия Мухаммада Аминходжи Мукими.

Ключевые слова: Мухаммад Аминходжа Мукими, кокандская литературная среда, устное народное творчество, фольклорные традиции, газель, народный стиль, художественные средства, сравнение, поэтическое мастерство, литературная традиция, национальный дух, образность, узбекская классическая литература, фольклоризм, поэтический язык.

LITERARY TRADITIONS AND THE DEVELOPMENT OF MUQIMI'S CREATIVE HERITAGE

Tursunova Namunaxon Xaydarali qizi
Kokand University, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article analyzes the role of literary traditions, especially the influence of folklore, in the formation and development of the творчество of Muhammad Aminxo'ja Muqimiy. As a prominent representative of the Kokand literary environment, the poet's ghazals are examined through examples that reveal folk spirit, national imagery, widely used similes, and traditional expressions. The study scientifically substantiates the artistic and aesthetic functions of folkloric elements in Muqimiy's poetry, as well as the role of folk-style expression and imagery in shaping the poet's individual style. In addition, the article emphasizes that the poet's language, which is close to the speech of ordinary people, contributed significantly to the popularity of his ghazals among the public. The harmony between literary tradition and individual artistic mastery is regarded as one of the defining features of Muhammad Aminxo'ja Muqimiy's creative work.

Keywords: Muhammad Aminxo'ja Muqimiy, Kokand literary environment, folklore, folk literary traditions, ghazal, folk style, artistic imagery, simile, poetic mastery, literary tradition, national

spirit, imagery, Uzbek classical literature, folklorism, poetic language.

“Xalq ijodining asosiy turlari va tarkibiy qismlaridan biri og‘zaki badiiy ijoddir. O‘zbek folklorshunosligining shakllanish davrlarida og‘zaki so‘z san‘atiga nisbatan el adabiyoti, og‘zaki adabiyot, og‘iz adabiyoti kabi turli-tuman atamalar ishlatilgan. Keyinchalik xalq og‘zaki badiiy ijodining (og‘zaki so‘z san‘atining) barcha namunalarini o‘z ichiga oluvchi termin sifatida o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi va o‘zbek folklori atamaları mustahkam ravishda o‘zlashdi.” [1.249]. Yozma adabiyotning shakllanishi va ravnaq topishida xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyosdir. O‘zbek adabiyotining eng xalqchil shoiri Muqimiy ham folklorga xos motiv, obraz, ohang va tasviriy vositalardan ilhomlangan va asarlarida mahorat bilan foydalangan. Uning she‘rlari hali siyohi qurimay turib xalq ichiga keng tarqalgan. Bu mashhurlikning siri – shoir she‘rlarining xalq qo‘shiqlari ruhi va ohangida yozilganida edi. Haqiqatan ham, bu she‘rlar xalq qo‘shiqlari kabi sodda va ravon, jarangdor va ta‘sirchan, hammaga tushunarli oddiy til va yengil va o‘ynoqi uslubda yaratilgan. Agarda shoir taxallusi bo‘lmaganida ularni hech ikkilanmasdan xalq qo‘shiqlariga nisbat berib ketaverish ham mumkin.

“Folklorizmlardan har bir davr ijodkorlari ijtimoiy hayot voqealaridan kelib chiqqan holda, o‘sha davr adabiy jarayoniga muvofiq tarzda foydalangan”. [2.53] Muqimiy ham o‘z davri ijodkorlari qatori o‘z she‘rlarida folklorga xos sodda shakl va ifoda uslubi, an‘anaviy epik obraz va motivlar, o‘ynoqi va serjilo ohangdan foydalangan. Bu orqali milliy she‘riyatga yangicha ruh olib kirgan. Muqimiy va uning Furqat, Zavqiy, Muhayyir kabi zamondoshlari an‘anaviy mavzularda ham ko‘plab asarlar yaratish barobarida, nazm tili va uslubini ancha soddalashtirib, xalqqa yaqinlashtirdilar. Salafalaridan farqli o‘laroq, ularning she‘rlarida hayot bilan hamnafaslik kuchaydi, atrofda kechayotgan voqealarga munosabat, kundalik turmush hodisalari tasviri asarlarga kirib kela boshladi. Holbuki, ko‘pgina mumtoz shoirlar she‘rlaridan davr bilan, shaxsiy hayoti bilan bog‘liq biror-bir nuqta yo ishorani topish mushkuldir. Muqimiy, Furqat va Zavqiy asarlari esa, aksincha, ular yashagan davr manzaralarining o‘ziga xos badiiy ko‘zgusidir. Chunki o‘sha zamonning biror-bir muhim voqeasi yo‘qki, ular tomonidan qalamga olinmagan, o‘ziga xos munosabat bildirilmagan bo‘lsin. Bu shoirlar xalq qalbining aks sadosini tinglay oldilar, zamondoshlarini bezovta qilgan, dilining tubida, tilining uchida turgan so‘zlarni baralla ayta oldilar. Ular ijodi misolida she‘riyat ijtimoiy mavqe kasb etdi. Muqimiy esa bu borada ham davr shoirlarining peshqadami edi. Bir umr xalq ichida yurgan, xalq birla birga nafas olgan, xalq turmushi, orzu-o‘ylarini yaxshi bilgan Muqimiy xalqona so‘z va iboralarni topib ishlatishga juda usta. Shoir she‘rlari sodda, tushunarli, ayni paytda, ta‘sirchan va nishonga bexato tegishi bilan o‘ziga xos badiiy qimmat kasb etadi.

Oshno bo‘ldim desam, ko‘nglung sening begonada, (117)

kabi sof xalqona misralarni Muqimiydek xalqchil shoirgina ijod qilishi mumkin.

Muqimiy o‘z she‘rlarida xalqona so‘z va iboralar, maqol-matallar, naqlar va qanotli so‘zlar, asrlarni bo‘ylab kelayotgan an‘analar va urf-odatlar, rasm-rusumlar va irim-sirimlar, xalq qarashlari va e‘tiqod tarzidan badiiy maqsadi ifodasi uchun mahorat bilan foydalanish orqali she‘rlarining xalqchilligi va ta‘sirchanligini ta‘minlaydi, badiiy barkamollikka erishadi. Bu she‘rlarda xalq bamisoli o‘zini ko‘zguda ko‘rganday bo‘ladi, dilidan kechgan, tilidan o‘tgan fikr-u o‘ylarini o‘qiganday bo‘ladi. Shuning uchun bu she‘rlar xalq ko‘nglida aks sado beradi, xalq ko‘nglidan joy oladi, xalq xotirasida yashaydi. Shoir she‘rlarining ko‘pchiligi hofizlar soziga tushib, qo‘shiqqa aylanib ketganligi bejiz emas.

“Muqimiy she‘riyatidagi xalqona ruh og‘zaki nutqda, ko‘proq so‘zlashuv jarayonida erkalash, iltifot, ba‘zan minnatdorchilikning o‘zbekona shakli sifatida “o‘rgulay”, “aylanay”, “tasadduq”, “esonmisiz?”, “omonmisiz?” so‘zlari ko‘p uchraydi”. [3.192] Shu jihatdan qaraganda, Muqimiy uslubi shaxsiyati, yashagan davri, adabiy muhiti, ijod olami bilan belgilanadi. Chunki Muqimiy shaxsiyatidagi soddalik, samimiylilik, insoniylik, xalqona ifoda kabi sifatlar uning ijodiga ham ko‘chgan. “o‘rgulsun”, “o‘ynaylik, kulaylik”, “aylansun”, “tokaygacha”, “mayligamu”, “o‘rgulay” radifli g‘azallarida buning isbotini ko‘rish mumkin.

Ey yaxshilar, kelaylik, bir joyga yig‘ilaylik,

O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.

Bu umr ekan baqosiz, dunyoyi dun vafosiz,

O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik. (52)

Ushbu g‘azal sof so‘zlashuv uslubida. Unda og‘zaki nutqda ishlatiladigan “O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik” jumalari har bir baytning ikkinchi misrasida takrorlanib she‘rning ohangdorligini, sodda va tushunarli bo‘lishini ta‘minlagan.

Yana bir she‘rida sevgan yoridan ayri holda hayot kechirishini hatto tasavvuriga sig‘dirolmagan oshiq tilidan: “Umrim sensiz o‘tadigan bo‘lsa, menga bunday tiriklikning sira keragi yo‘q. Bundan ko‘ra

tuproqqa aylanganim ming martaba afzal – jism ichra jonni boshimga uramanmi?!” deya sof xalqona fikr yuritadi:

Sansiz o'tsa umr, mundog' manga jon darkor emas,
Tufroq o'lmak yaxshiroq, ruhi ravon darkor emas (47).

Hijrondagi oshiq holatini esa mana bunday chizadi:
Hajr ila tinmay ko'zimdin ko'rmasam ashkim kelur,
G'ayr ila ko'rsam mabodo xud-baxud rashkim kelur (35).

“Seni ko'rmasam, hajringda tinmay ko'z yoshi to'kaman. Mabodo seni boshqa bilan ko'rguday bo'lsam, o'z-o'zidan rashkim keladi”.

Shoir tashbehlari ham o'zining xalqonaligi bilan e'tiborni tortadi. Chunonchi, bir baytida: “Boshimda sochimning tolalaridan ham ko'p savdolarining borki, zulfingning muattar tuzog'idan xalos bo'lmoqning sirayam iloji yo'q”, – deya nozik lutf vositasida o'tkir mubolag'a qiladi:

Xalos o'lmoq muanbar domi zulfingdin iloji yo'q,
Boshimda mo'yi sardin ham fuzun savdolarining bordur (33).

“Seni deb xalq ichida mundoq fitnalar qo'zg'olgan ekan, bunga o'zingning ham bir qarashda ko'ngillarni o'ziga tortadigan husn-u jozibang ham sababdir”, – deydi boshqa bir baytida:

Xaloyiq ichrakim qo'zg'aldi mundog' fitnalar bois,
O'zingni ham biroz, lekin ko'ngul orolig'ing bordur (33).

Muqimiy kayfiyati yo'q tund ma'shuqa holatini ifodalash uchun “ko'ngliga qil ham sig'maydi” degan xalqona iboradan mahorat bilan foydalanib, tasvirning ta'sir kuchini oshirishga erishadi:

Mo'y ham tab'ig'a sig'may tund o'lub, gap yoqmagay,
Toblanib har rang yuz alvonlig'ingdin o'rgulay. (128)

Quyidagi baytda yor yo'lida intizor bo'lgan oshiq ko'zini yo'lga qaragan eshik halqasiga o'xshatadi:

Ro'zu shab yo'lingda termuldim bahadde, dilbaro,
Intizoringni chekib, chun halqai dar har ko'zim (90).

Albatta, shoir xalqona so'z va iboralardan keng foydalanishiga qaramay o'zining fikr-u mushohadalari, tuyg'u-kechinmalari, tasvir va ifodalarini oddiygina bayon qilish bilan kifoyalanmaydi, bil'aks rang-barang badiiy san'atlarni mahorat bilan qo'llab, she'rlarining shaklan go'zal, mazmunan teran, badiiy barkamol chiqishiga harakat qiladi. Chunonchi, mumtoz she'riyatda ma'shuqaning qoshi yoy, qilich va boshqa o'tkir va keskir qurollarga nisbat beriladi. Shoir shundan foydalanib: “Oshiqlarining boshini olish uchun qoshingning shamshirini haddan ziyod tezlama – yosh boshingga ishq ahlining qonini daryo qilib oqizma”, – tarzida mubolag'ali lutflar qiladi:

Qoshni shamshirini bosh kesmakka burro qilma ko'p,
Yosh boshingga muncha ham qonlarni daryo qilma ko'p (23).

“Eshikdin ursang-u quvsangki, ketmas bir gadoyingman”, “Har kecha yodingda ming yo'l uyqudin uyg'onaman”, “Man bu g'am bozorida yurmakka holim qolmadi”, “Goh-gohe ko'z uchi birlan nazar sol, aylanay”, “Shum raqiblar ko'zig'a olamni tor aylab keling”, “Ishq o'tig'a kuydi mag'zi ustuxon”, “Fe'l-u atvoringni sog'indim yomon”, “Chiqdi hijron chillasi, keldi bahorim, xayriyat”, “Qilmasam zikringni kesulsun zabon”, “G'ayr ila ko'rsam mabodo xud-baxud rashkim kelur”, “Naylayin, har yerda bo'lsang ham omon bo'l mayliga”, “Ko'z teshildi yo'llarida ham qarab”, “Shirin asaldin so'zlari, issig' ajab yulduzlari”, “kokilchasi rayhon ekan”, “ko'zum oqsun”, “shundin-shunga men sen bor deb keldim”, “Yomon sog'indim”, “Domaningni tutmasun to ro'zi mahshar qonginam”, “o'lmagan jonim mani”, “Ovorai bu mulki Farg'ona qilib ketdi”, “Har kishini bo'lsa mahbubi kiroyi san kabi”, “Mo'y ham tab'ig'a sig'may”, “Kishining jonidek jismimdagi ruhi ravonim siz”, “Minib noz otig'a”, “Dog'men: tab'ingizni chog' etmak qo'limdin kelmadi”, “Ko'zicha dushmanim yer birla yakson aylading-ketding”, “shul ishni bekor aylading”, “bormay ishga qo'l”, “Ko'rgan yerimda surati devorman yana”, “birovning ishqida bemorman yana”, “Ko'zum uchgay magar mehmon kelur”, “Hayron yo'lida diydalarim chormen yana”, “bormudi qasding”, “uy bo'lmag'ay devonada” singari ko'pdan-ko'p xalqona misra va iboralar Muqimiyning qanchalik xalqchil shoir bo'lganligini yorqin ko'rsatadi.

Muqimiy g'azallarida shayton, dev, alvasti, pari singari mifologik obrazlar stilizatsiyasi kuzatiladi. Pari obraziga murojaat ko'proq seziladi. Bu mifologik badiiy obraz yozma adabiyotda ham ko'p takrorlanadi. Folklorshunos O.Qayumov mazkur obraz haqidagi dastlabki ma'lumotlar “Avesto”da uchrashi va u “payrika” nomi bilan qayd etilganligini, payrika mifologik personaj nomi bo'lib, genetik jihatdan pari obrazining arxaiik ko'rinishlaridan biri hisoblanishini ta'kidlaydi va “pari” obrazining tarixiy ildizlari, mifologik obraz sifatidagi rivojlanish bosqichlarini quyidagicha davrlashtiradi: “pari - ezgulikka

xizmat qiluvchi homiy kuch timsoli (zardushtiylikdan oldingi davr); pari – yovuzlik olamiga mansub shaytoniy kuch timsoli (zardushtiylik davri); pari – mifologik va badiiy obraz (zardushtiylikdan keyingi davr).” [4.576]

Muqimiy ham “pari” obrazidan folklor asarlaridagidek go‘zal qiz sifatida tasvirlaydi va oshiqlik motivi bilan bog‘laydi. Mana bu baytida ma‘shuqasini pariga o‘xshatib, “Agarchi pari qavmi inson zoti bilan sira do‘st bo‘lmasa-da, Muqimiy sening vasfingda pok muhabbat ilhomi bilan g‘azallar bitdi”, – deya lutf etadi:

Vasfig‘a aylar g‘azallar pok muhabbatdin Muqim,
Bo‘lmas odamg‘a agarchandi parilar oshno (16).

Boshqa bir g‘azalida esa “Bahor faslida dashtlarda ochilgan lolalar emas, ul parining hajrida meni ko‘zimdan oqqan qonli yoshlarim”, deya mubolag‘aning haddi a‘losiga yetkazadi:

Lola ermas dashtlarda ochilgan fasli bahor,
Ko‘zdin oqqan ul parini hajrida qonim mani. (138)

Muqimiy ijodini kuzatar ekanmiz, etnografik folklorizmlardan foydalanish ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunonchi, quyidagi baytida o‘zbeklarning madaniy turmush tarzi – xalqning mehmon oldiga dasturxon solish odatidan ma‘shuqaning visolidan bahramand etishini iltimos qilish uchun foydalanadi:

Xoni vaslingga bore aylasang netar mehmon,
Hajr kunjida tokay o‘tmas osh tamog‘lardin (100).

“Hech qursa bir marta visoling dasturxoniga chorlab, mehmon qilsang, bir yering kamayib qoladimi, axir, qachongacha hijron go‘shasida tomoqlardan taom o‘tmaydi?”

Shoir hamma ko‘rgan-bilgan, lekin hech qachon e‘tibor bermagan diniy-e‘tiqod masalalarini ham baytlariga joylaydi. Bu oddiy narsa-hodisalar shoir she‘rlarida kutilmagan va ohorli tashbeh sifatida kirib keladi va birdan tasavvurni yaraq etib yoritib yuboradi.

Nogahon qilg‘il hazar, jono, Muqimiy ohidin,
Domaningdin tutmasun to ro‘zi mahshar qonginam (127).

“Ey jonon, Muqimiyning o‘tli ohidan hazir bo‘lki, tag‘in qiyomat kunida qonim etagidan tutmasin”, – deya o‘z fikrini yana bir o‘ziga xos xalqona tashbeh orqali go‘zal va ta’sirchan bir tarzda ifodalaydi. Ma’lumki, qiyomat kunida barcha o‘zining savob-u gunohi uchun ajr-u mukofot oladi. Shunga o‘xshab, ma‘shuqa ham oshiqqa o‘tkazgan jabr-u jafosi uchun javob beradi, deydi shoir.

Diniy ta’limotga ko‘ra, qiyomatda o‘lganlar tirilib, savol-javob qilinadi, ularning savob va gunohlari taroziga tortilib, shunga qarab mukofot yoki jazo olishadi. [5.237] Xalq ichiga keng va chuqur singib ketgan bu qarashni shoir sitamgar ma‘shuqa xatti-harakatlariga tatbiq etadi, qiyomatda uning oshiqqa o‘tkazgan jabr-u jafolarining ajrini olishi mumkinligidan ogohlantirishdan iborat o‘zining badiiy maqsadi yo‘lida istifoda etadi.

Yoki ramazon ro‘zasi iftorligida go‘zal ne‘matlar tanovul qilinadigan paytdagi bechora oshiq holati quyidagi baytida juda ta’sirchan ifodalangan:

Yo‘qki g‘amxo‘re desa, bechorai sho‘rlik Muqim,
Yordin ajrab, zahru zaqqum birla iftor aylading (53).

“Ey bechora-yu sho‘rlik Muqim, yoringdan ajralib, go‘yo zahar-u zaqqum bilan iftorlik qilding”, – deb holimga achinadigan bir mehribon-u g‘amxo‘rim yo‘q”.

Xalq ichida “Agar o‘zimning gaplarimga ishonmasang, qo‘limga Qur‘on tutib qasam ichsam ishonasanmi?” – degan gap mashhur. Muqimiy bir qancha g‘azallarida bundan oshiqning o‘z ahdigga sodiqligini tasdiqlash maqsadida foydalanadi:

Lisoni so‘zga bovar qilmas ersa, qosido, ayg‘il,
Uray oshiqlig‘imga maxfi Qur‘on, bir kelib ketsun (106).

“Ey xabarchi, agar mahbuba mening so‘zlarimga ishonmaydigan bo‘lsa, oshiqligimga qo‘limga Qur‘oni karimni tutib qasam ichaman – faqat ayt – u bir kelib ketsin”.

Boshqa bir baytida ayni qasamni endi mahbubaga nisbat beradi:

Har dam ag‘yor ahlig‘a qilg‘on takallum noz ila,
Bizga ul mahvash ko‘targanmuki Qur‘on indamas (50).

“Raqiblarga har dam noz ila takallum qiladigan mahbuba bizga so‘z qotmaslik uchun Qur‘on bilan qasam ichganmiki, sira so‘zga og‘iz ochmaydi”.

Yana bir baytida esa da‘vogar raqiblarning o‘zining ishqiga ishonmay, uni shunchaki havoyi va beqaror oshiq deb ta’na-malomatlariga qarshi “Qo‘limga Qur‘on olib, oshiqligimga qasam ichsam, nafaslar ichlariga tushib ketmasmikan”, – deydi:

Muddaiylar “bulhavas” deb ta’na aylar ishqida,

To o‘zumga bir uray Qur’onki, tobi bormukin? (111)

Ko‘rinib turibdiki, Muqimiy uch o‘rinda Qur’on bilan qasam ichishni uch xil badiiy maqsadga xizmat qildirgan, ya’ni bu borada ham takrorga yo‘l qo‘ymagan.

Muqimiy hayotning azaliy va abadiy haqiqatini, tiriklikning eng buyuk mantig‘ini, inson turmushining eng achchiq mazmun-mohiyatini eng oddiy so‘zlar bilan, oddiy samimiyat bilan tasvirlaydi:

Mulki Hind-u Marvdin kelsam topardim e’tibor,

Shul erur aybim, Muqimiy, mardumi Farg‘onaman.(98)

Ko‘rinib turibdiki, “oldingdan oqqan ariqning qadri yo‘q”, degan asrlarni bo‘ylab kelayotgan xalq maqolini Muqimiy ana shunday shaklda o‘ziga xos va ohorli tarzda she’rga soladi.

“Agar ko‘ngling tosh qotgan bo‘lsa ham, mening g‘arib ahvolimni ko‘rganda erib ketishi, muruvvat ko‘rsatish kerak edi – sen esa dushmanimning ko‘zi oldida meni yer bilan yakson qilib ketding”, – ma’nosidagi baytda xalqona kinoya va ta’na ohangini ko‘ramiz:

Agar tosh bo‘lsa ham, ko‘ngling erib, lozim edi rahming,

Ko‘zicha dushmanim yer birla yakson aylading-ketding (60).

She’r o‘quvchi uchun yozilar ekan, uning didi, saviyasi, talab va ehtiyoji albatta hisobga olinishi kerak. Muqimiy hamisha ko‘ngilga yo‘l topadigan va ma’naviy oziq bo‘ladigan she’rlar yozishga intiladi. Jumladan, quyidagi baytida: “Ey sarvi ra’no, agar suratingni ko‘rish mumkin bo‘lsa-yu, uni qorachiq kabi ko‘zim ichiga jo qilib olsa edim”, – deya xalqona, ayni paytda betakror tashbeh qo‘llaydi:

Mumkin o‘lsa ko‘rmog‘im, ey sarvi ra’no, surating,

Aylasam chashmim aro mardum kabi jo surating (74).

Sevimli yor suratini qorachiq kabi ko‘zga jo etish – uni ko‘z gavhariga aylantirish u bilan bir umr birga bo‘lish demakdir. Ana shu sharhi bir risola bo‘lgulik fikrni shoir kutilmagan tashbeh vositasida bir misra qatiga joylaydi. Bu, o‘z-o‘zidan, mahorat mahsuli.

“Agarda oqshom chog‘i yor yuzini ochib chiqsa, ey do‘stlar, tunda quyosh charaqlab chiqdi deng!” kabi betakror tashbehlar ham aslida xalq og‘zaki ijodi chashmasidan suv ichadi:

Ochibon ruxsorini nogoh oqshom chiqsa yor,

Begumon, ahhoblar, xurshidi tobon chiqdi deng! (52)

Muqimiy g‘azallarida xalq og‘zaki ijodidagi olqish va qarg‘ishlar ta’sirida betakror analitik folklorizmlar yaratgan. Jumladan, Amiriyning “ayrulmasun” radifli ikki g‘azali va Nodiraning muashshari ta’sirida yozilgan “ayrilmasun” radifli g‘azali fikrimiz tasdig‘i bo‘ladi. G‘azal matlasi Yaratganga murojaat qilib, “Hech kim men kabi mehribon, munis yoridan ayrilmasin”, deb iltijo qilish ohangi bilan boshlanadi. Keyingi baytlarda “yo‘q-u boridin”, “bulbul gulzoridan”, “zulfi anbarboridin” ayrilmasligi Yaratgandan so‘raladi. G‘azalning kulminatsion nuqtasi quyidagi baytda:

Do‘stlar, ko‘rsatmasun hargiz judolik dardini,

Dushmaning ham bo‘lsa o‘z g‘amxoridin ayrilmasun.(108)

Mazkur baytda chin insoniy niyatlar bayon etiladi. Mazmuni: “Ey do‘stlar, Xudoyim hech qachon birovga judolik dardini ko‘rsatmasin, hatto dushman ham o‘z mehribon-u g‘amxo‘ridan ayrilmasin!”.

Radif bo‘lib kelgan “ayrulmasun” olqish ohangi nido san’ati yanglig‘ bo‘y ko‘rsatadi. Amiriyy va Nodira ijodida ishqiy mavzu ustunlik qiladi. Muqimiy g‘azalida esa mavzu yangilanadi, ijtimoiy ruh ustunlik qiladi.

Shoirning tili ba’zida yaramas, tuban, bevafo, jafu qiluvchi, paskash, kibrli insonlarga qarata “qiron kelsin” deb beixtiyor qarg‘ishga ham aylanadi:

Iloho jumla tuxmi bevafolarg‘a qiron kelsun,

Jafojo‘, siflaxo‘, baxti qarolarg‘a qiron kelsun.

Yo‘lida xonumonlar sarf etib, jonlar fido qilsang,

Darig‘o, hech bilmas norasolarga qiron kelsun.

Ko‘yub ko‘ngul muhabbat bog‘lasang qonlar yutub doim,

O‘lursan ayrilolmay, ro‘dapolarga qiron kelsun.

Qilurlar karru-farlar ikki kunlik davri-davronga,

Kibrlik mahmadona, badhavalarga qiron kelsun...

Bu yurgan betamiz, nodon juvonlar ham bozorlarda

Balodek uchragan shilqim gadolarga qiron kelsun.

Omon bo‘lsun, ko‘karsunlar agar donolara ulfat,

Muqimiy, bir necha past oshnolarga qiron kelsun. (107)

Ma’lumki, nafrat va g‘azab qarg‘ishlar tabiatini belgilovchi asosiy alomatdir. Xalq qarg‘ishlaring badiiy shakli, tili va ifoda uslubidan ijodiy foydalanib yaratilgan ushbu g‘azalda yaxshilikni bilmaydigan, fidoyilikni qadrlamaydigan yaramas kimsalar, ko‘yida qon yutgan oshig‘ini xor qiladigan beqaror

go'zallar, to'rt kunlik davr-u davroniga bosar-tusarini bilmay qolgan kibr-u havo bandalari, bozorlarni to'ldirib yurgan yengiltak juvonlar-u qadamida oyog'ingga o'ralashidagan shilqim gadolar, pastkash-u nokas do'st-u yaqinlar qarg'ish kamoniga solib otiladi.

Ta'kidlash kerakki, Muqimiy qo'llagan qarg'ishlar birgina obyektga emas, balki umumga qaratilganligi bilan ijtimoiy mohiyat kasb etib, xalqona uslubdagi qarg'ishlardan mazmunan farq qilmoqda. Xuddi shu nuqtada shoirning badiiy mahoarti, o'ziga xos folklorizm yaratganligi ko'zga tashlanadi.

Irimlar insonlar hayotining bir qismiga aynalgan va bu adabiyotga ham ko'chgan. "Odamlarning gavda va yuz tuzilishlariga, xatti-harakatlariga yoki ko'rgan tushiga qarab taqdirleri aniqlangan". [6.472] Irim "kishilarga g'ayritabiiy hodisalarning ta'sir qilishiga ishonib, biror niyat bilan qilinadigan xurofiy ish, xatti-harakat. Irim kishilarning o'zlarini ehtiyot qilish, birovlariga yaxshilik tilash yoki ziyon yetkazish va boshqa niyatlarda qilinadi. Irimning turlari juda ko'p va jahondagi deyarli hamma xalqlarda uchraydi. ...Ilgari farzandlarga ism qo'yishda ham irim qilinardi. Masalan, Yo'lda tug'ilgan bolaga Yo'lchi, safarda tug'ilgan bolaga Safar deb ism qo'yilgan. Irim bir tomondan, kishilarning ezgulikka intilishlari bilan bog'lanib ketadi, ikkinchi tomondan, tabiat va jamiyatda qandaydir g'ayritabiiy sehrli kuchlarning borligiga ishonishga asoslanadi... Kishilarning amalda tabiiy va ijtimoiy kuchlarni tobora o'zlariga buysundirib borishlariga qarab, irimlar yo'qolib boradi". [7.165]

Kishining ko'zi uchsa, mehmon keladi deb irim qilinadi. Shoir ma'shuqa tashrifini xalq ichida keng tarqalgan ayni irim bilan bog'laydi:

Bu kun nogah munavvar shomimi aylarga, ey ahhob,
Ko'zum uchkay, magar mehmon kelur mastona-mastona (39).

Nutqni obrazli va aniq ifodalashda qanotli so'zlarning ham o'rni beqiyosdir. Muqimiy ijodidagi ayrim obrazlar, birikmalar qanotli so'zlar darajasiga chiqqan. "Qanotli so'zlar dunyo madaniyatida alohida o'ringa ega bo'lib, sayqallangan yozuvchilar, davlat arboblari, faylasuflar tomonidan aytilgan fikrlar, so'zlar." [8.77] "Tanobchilar" masnaviysidagi Hakimjon va Sulton Alixo'jalar tanbal, ishyoqmas, mfaqat o'z manfaatlarini o'ylaydigan kimsalarga nisbatan qo'llash mumkin. Muqimiy o'z she'rlari fikr tasdig'i uchun maqol keltirishdan iborat irsoli masal san'atidan ham mahorat bilan foydalanadi. Aytaylik, "Egasini siylagan itiga suyak tashlar" degan maqol mashhur. Bu – it orqali uning egasi ko'nglini topish ma'nosida. Shoir ayni maqolni badiiy maqsadi ifodasiga xizmat qildirar ekan, uni o'ziga xos hech kimning xayoliga kelmagan ohorli tashbeh bilan boyitadi: "Ey ko'ngil, agar yor ko'yidan (ko'chasidan) uning iti kelsa, sohibasining hurmati haqqi, uni yurak-bag'ringni uzib tashlash orqali oliy darajada mehmon qil!"

Yor ko'yidin kelsa siylab it egosini,
Ey ko'ngul, yurak-bag'ring tashlab anga, mehmon qil (77).

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, Muqimiy xalq og'zaki ijodi atalgan hayotbaxsh chashmadan qonib-qonib suv ichgan, folklor unsurlaridan o'z ijodida "ko'p va xo'b" foydalangan va bu orqali o'z she'rlarining soddaligi va ravonligi, jarangdorligi va ta'sirchanligi, xalqchilligi va badiiy barkamolligini ta'minlagan shoirlar sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirzaev T. Folklor va uning asosiy xususiyatlari // XX asr o'zbek folklorshunosligi antologiyasi / tuzuvchilar: O. To'laboyev, M. Jo'rayev va boshq. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 249.
2. Amonov U. XX boshlarida o'zbek folklorining o'rganilishi tarixi (Abdurauf Fitrat, G'oz Olim Yunusov va Elbek faoliyati misolida). – Toshkent, 2018. – B. 53.
3. Tojiboyeva M. Muqimiyning xalqona ruhdagi she'riyati xususida // Qo'qon adabiy muhiti va Uchinchi Renessans: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg'ona: Farg'ona, 2022. – B. 192.
4. Qayumov O. Pari obrazining genezisiga doir mulohazalar // XX asr o'zbek folklorshunosligi antologiyasi / tuzuvchilar: O. To'laboyev, M. Jo'rayev va boshq. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 576.
5. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – B. 237.
6. Yo'rmatov I. O'zbek xalq irim-aytimlarining janr xususiyatlari // XX asr o'zbek folklorshunosligi antologiyasi / tuzuvchilar: O. To'laboyev, M. Jo'rayev va boshq. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 472.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 2-jild. – Toshkent, 2000. – B. 165.
8. Sharipova S. Word of Philology // Scientific Journal. – 2022. – Vol. 1. – B. 77. – ISSN 2181-3620.
9. Juraev Z., Kobilova Z., Tursunova N., Imomaliyeva M., Kurbanova F., Teshaboyeva Z. Dead Souls and the Bureaucracy of the Spirit: Gogol's Metaphysical Satire as Ethical Anthropology // Interdisciplinary Literary Studies. – 2026. – Vol. 28, No. 2.